



JADIDLARNING TARIXGA BAG'ISHLANGAN ASARLARI

Fattoyev Islom Ilg'or o'g'li

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

61-IDUMning tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7180296>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 10th October 2022

KEY WORDS

Inqilob, respublika, jadidlar, mahkama, xalifalik, Buxoro amirligi, ashtarxoniylar, zindon, ishkil bog'i, mang'itlar,

ABSTRACT

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan ma'rifatparvar bobolarimiz asarlarida yoritilgan davr tuzumi, ijimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot muammolari haqidagi qarashlari va bu muammolarga munosabati yoritilgan.

XX asrda ijtimoiy hodisalarning almashinish sur'ati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Jadid adabiyoti to'lig'icha millatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi.

Jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga ahd qilgandilar. Shulardan biri O'rta Osiyo jadidchilik harakati yo'l boshchisi, dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy ibn Behbudxo'jadir. Ko'pgina jadidlar singari Behbudiyning "Padarkush yohud o'qimagan bolaning holi" asaridan, "Turkiston", "Sherdor madrasasi", "Tarixi ixtiroyi bashar", "Turkiston tarixi kerak", "Ismoilbek hazratlari" nomli maqolalarida

tarixiy ma'lumotlar, o'zi yashagan tarixiy davr voqealari, tarixiy obidalar haqida kerakli ma'lumotlarni topish mumkin. Behbudiyning "Sherdor madrasasi" nomli maqolasida ashtarxoniylar davrida barpo etilgan, bugungi kunda Samarqanddagi Registon maydoninining tarixiy bir bo'lagi bo'lgan Sherdor madrasasi haqida tarixiy ma'lumotlar beradi. Uning bunyod bo'lishi, naqshlari turlari, ustalari, qurilishi sabablari haqida kerakli ma'lumotlarni yozib qoldiradi. Bunyod bo'lganiga to'rt asr bo'lgan bo'lsa ham koshinlari oftob va oy nurini aks ettirib ko'zni qamashtiradigan bu inshootni Behbudiy shunday ta'riflaydi: "U muborak qubba, dahma, buq'alar boniy va sokinlarining moziyg'a madfun va mujassam tarixiy va diniy qahramonliklarini yod etib bahri taommiqig'a mahv va g'arq o'lmali".

Behbudiy o'z zamonining kamchilik va nuqsonlarini ko'rib, uni keltirib chiqargan sabablarini anglagan. Unga yechimlar topishga harakat qilgan. Mana shu yechimlardan biri o'z vatani tarixini



millatdoshlariga haqqoniy yetkazib berish ekanini anglagan holda "Turkiston tarixi" kerak" maqolasida bevosita tarixga to'xtalib o'tadi. Kishi vatani tarixini nima uchun o'rganishi kerakligini, o'z yurti tarixini bilish uning buguni va kelajagi uchun qanchalik muhim ekanligini tushuntiradi: "Tarixning foydalaridan ba'zisi ushbudirki, bir millatning na tariqada, qaysi yo'l ila taraqqiy etganin o'qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo'lib ketganin o'qub mundan ham istifoda etmak mumkindir"¹.

Bu asarni yaratishdan maqsad mamlakat tarixi chuqur va boy ildizga ega bo'lsa-da yetarlicha yoritilmagani, borlari ham mustamlakachilar tomonidan yo'q qilingani, natijada xalqimiz xurofotlik qissa, hikoyalar va oshiqona g'azal, turli afsonalarga chalg'ib asl tarix ilmidan bebahra qolayotganiga achinadi, va zamondoshlari va kelajak avlodlarga mavjud tarixni qayta tiklash vazifasini qo'yadi.

Toshkentlik jadidchilar yetakchilaridan Abdulla Avloniyning "Po'rtug'oliyo inqilobi", "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom", "Advokatlik osonmi?" asarlari, "Afg'on sayohati", "Zakot" kabi maqolalarida tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Uning "Po'rtug'oliyo inqilobi" asari Portugaliyada sodir bo'lgan 1910-yil oktabr oyidagi inqilob voqealari tasvirlanadi. Inqilobning yuzaga kelishida mamlakatda hukm surayotgan monarxiya tuzumi zulmi va Portugaliya monarxiyasi qo'llab-quvvatlayotgan ingliz hukumati tazyiqi sabab bo'ladi. Inqilobchilar Respublika tuzumini o'rnatishni o'z oldilariga maqsad

qilib qo'yishadi. Ularni armiya qismlari va harbiy-dengiz floti kuchlari quvvatlab chiqishadi. Poytaxt Lissabonda butun xalq oyoqqa turgach qirol Manuel qochib ketadi. Shu tariqa Portugaliya inqilobi g'alaba bilan yakunlanadi, shohlik tugatilib, respublika tuzumu o'rnatiladi. "Portugaliya inqilobi" dramasi zamirida mana shu konkret tarixiy voqea yotadi.

Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" asari ham bevosita tarixda sodir bo'lgan voqealarga bag'ishlanadi. Asar birma-bir Qur'onda nomi keltirilgan tarixda o'tgan yigirma besh payg'ambar haqidagi ma'lumotlardan boshlanadi. Milodning dastlabki davrlaridagi arablar, ularning hayot tarzi, so'nggi payg'ambar Muhammad alayhissalom davri tarixi, arab qabilalari taraqqiyoti va ularda davlatning vujudga kelishi, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v), ularning oila a'zolari haqida: "Avlodi rasuli akram salallohu alayhi vassallam"² nomi bilan tarixiy ma'lumotlar keltiradi, payg'ambarimizning vafotlaridan keyingi davrda hukmronlik qilgan xalifalar davriga ham keng o'rin ajratadi.

Butun umri davomida Ona-Vatanini ozod va obod ko'rish ishtiyoqi bilan yashagan millatning asl o'g'lonlaridan biri Fitrat edi. U umr bo'yi barcha harakati, ijodiy hayotini shu maqsadga bag'ishladiki, natijada uning faoliyati yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan biriga aylandi. Millat farzandi o'zining "Muxtasar islom tarixi", "Abulfayzxon", "Arslon", "Vose qo'zg'oloni", "Sayyohi hindi", "Munozara" kabi asarlari va bir qator maqolalari orqali ham vatandoshlarini uyg'otishga, ularga tarixda bo'lib o'tgan hodisalarni eslatib, ularni keltirib chiqargan sabablarni,

¹Бехбудий М. Танланган асарлар. "Туркистон тарихи" керак. Тошкент: "Маънавият", 1999. 178-бет

²Авлоний А. Танланган асарлар. II жилд. Мухтасар тарихи анбиё ва ҳукамо. Тошкент: "Маънавият", 2006. 126-бет.



keyinchalik oqibatlarini namuna sifatida ko'rsatish orqali kerakli xulosa chiqarishni ko'zlaydi.

Abdurauf Fitratning "Muxtasar islom tarixi" nomli ilmiy tarixiy asari Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" asari bilan shaklan, mazmunan tarixiy davrni yoritish jihatdan juda o'xshash. Islom dini tarixiga bag'ishlangan bunday asarlarni yaratishdan maqsad ham Fitrat aytganidek: "uni bilish har bir musulmon uchun lozimdir"³. Fitratning asari tarixga ta'rif, taqsim berishdan boshlanadi: "Tarix: millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rgataturg'on ilmdir"⁴. Tarixni ikki qismga umumiy va xususiy tarixga bo'ladi. Umumiy tarix jahondagi barcha xalqlar, millatlarning, jamiyatlar tarixi bo'lsa, xususiy tarix bir millat, bir jamiyat tarixi hisoblanadi. Fitrat bu asarda xususiy tarixga mansub bo'lgan islom dini tarixini, o'zi tariflaganidek: "Islom tarixi Hazrati Paygambar (s.a.v)ning dunyoga kelishlaridan va islom dinining tarqalishi xususida bahs qilib, islom olamining taraqqiyoti va tanazzulini bizga onglatadur"⁵ deb yozadi. Asarda islomdan oldingi arablarning hayoti, shu davrning kuchli davlatlari va payg'ambarimiz yashagan davrda arablarning birlashib davlatga asos solinishi, payg'ambarimizdan keyingi xalifalar hukmronlik davrlari, arablarning dinni yoyish jihatidan uzoq va yaqin o'lkalarga qilgan yurishlari, xalifalar hukmronligidan keyingi sulolar, Umaviylar va undan keyingi Abbosiylar davri, ularning ko'zga ko'ringan hukmdorlari, Xalifalikning

inqirozga yuz tutishi tarixi va sabablari yoritib beriladi.

Fitrat XVII – XVIII asrlarda Buxoro xonligini idora qilgan so'nggi sulola – ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon hukmronligi davriga bag'ishlanga "Abulfayzxon" tarixiy dramasini yaratadi. Asar janriga ko'ra — tarixiy fojia. Mazmun-mundarijasiga ko'ra ko'hna Buxoro tarixidagi g'oyat mas'uliyatli va murakkab davrlardan biri – ashtarxoniylar sulolasining oradan ko'tarilib, o'rniga mang'itlar saltanatining kelishi va Buxoro amirligining tashkil topish davri yoritilgan asardir.

Asarni yaratishda Fitrat mavjud tarixiy manbalardan keng miqyosda foydalangan. "Abulfayzxon" ashtarxoniylar sulolasi barbod bo'lib, mang'itlar sulolasi boshlangan, ikki holatda ham mamlakat xonavayron ahvolga tushib, saroyda qon to'kishlar, fisq-u fujur va boshqa xil qabihliklar cheklanmagan bir davr tasviriga bag'ishlangan o'zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy dramadir hisoblanadi.

Boshqaruv tizimi izdan chiqqan, Eron qo'shini mamlakat hududiga tahdid solib turgan bir paytda saroyda xonning yaqin amaldorlari bamaylixotir "taxta"⁶ (shaxmat) o'ynab turishidan boshlanadi. Xon esa sotqin, amalparast, boylikka o'ch amaldorlar ta'siriga tushib, Farxod otaliqdek yurtga sodiq a'yonlarini o'zidan uzoqlashtiradi. Bunday voqealarning sodir bo'lishiga asosiy sabab o'zi ekanligini tushunib yetmaydi: "... Kimni tuproqdan ko'tarib, kursiga chiqarsak, tezgina

³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилд. Мухтасар ислом тарихи. Тошкент: "Маънавият", 2010. 36-бет

⁴ O'sha asar. 36-bet.

⁵ O'sha asar, 36-bet.

⁶ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Абулфайзхон. Йўқсул ўлкасининг тарихидан беш пардали фожиа. Тошкент: "Маънавият", 2000. 181-бет



boshimizga chiqmoqchi bo'ladir"⁷. Bundan tashqari Fitrat bu drammasi orqali Rossiya bosqiniga qadar o'tgan sulolalar va ulardagi hukmdorlar atrofidagi shaxslar sadoqatini turli in'omlar berish, tilyog'lamalik qilib, hukmdorni alqash darajasi bilan o'lchanganini ko'rsatadi.

Fitrat tarixiy qarashlarida xonliklar davri tarixini shafqatsiz zulm davri, adolatsizlik, begunoh qonlar to'kilgan davr deyish ham mumkin. Boshqaruv jarayonida hukmdorlar asosan jazo choralaridan foydalanganini, qo'lini qonga botirib, xonlik jallodlarini qo'li doim band bo'lganini ko'rish mumkin: "... podshohlik qon bilan sug'orilaturg'an bir og'ochdir. Qon oqib turmag'an yerda bu og'ochning qurib qolishi aniqdir."⁸ Ashtarxoniylar, undan keyin sulolani davom ettirgan mang'itlar davrida ham shunday holat vujudga kelganki har bir amaldor o'zining hayoti, kelajagiga to'liq ishonch bilan qaray olmagan. Katta amaldorlar xonning, kichik amaldor o'zidan yuqori lavozimdagi amaldor qahriga uchrab qolishdan doimo qo'rqib yashagan. Natijada ko'pincha xalq uchun, davlat uchun emas, yuqori martabali lavozim egalari yoki hukmdorlar foydasiga qarorlar chiqarilgan. Bunga qarshi bo'lganlar esa zindonga tashlangan.

Fitrat o'z asarida shunga o'xshash tarixiy holatni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Hukmdor atrofidagi sanoqli ishonchli mulozimlardan bo'lgan Ibrohimbiyga yuqori amal taklif qilganida uni ixtiyorsiz qabul qiladi: "Buyrug'ingizni qaytarmoq qo'limdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun menim ham o'limimga hukm chiqararsiz, xoqonim!"⁹ Bundan ko'rinadiki,

xon istagan paytida gunohkor deb bilgan a'yoni hayoti ustidan hukm chiqargan. Abulfayzxon hukmronligi davrida esa xon atrofidagi sanoqli, o'zi ishonchli deb bilgan a'yonlari gapiga kirib xonlikdagi o'z o'rnini yo'qatadi. Go'yoki yurt boshqaruvi bir emas bir necha hukmdor qo'lida bo'lgani kabi parokandalik holati yuzaga keladi.

Abulfayzxon hukmronligi so'nggida hokimiyat zaiflashuvi va muntazam qo'shinning yo'qligi sabab el-ulush boshliqlari katta nufuzga ega bo'lib olishadi, hattoki ba'zilar xonga qarshi bosh ko'tarib turishgan. Bunga sabab mamlakatda xon mavqeyi ancha tushib ketgan edi, uni shayboniylar davri bilan solishtirib bo'lmas edi. Muhammad Hakimbiy ham mang'itlar rahbari sifatida dastlab xonning marhamatiga sazovor bo'ladi, keyinchalik esa tashqi dushman hujumidan foydalanib, xonlikda boshqaruvni avval amalda, so'ngra rasmiy jihatdan o'z qo'liga oladi va keyinchalik uning bu harakatlari amrlikda mang'itlar sulolasi hokimiyatga kelishiga asos bo'ladi.

Fitrat o'z asarida boshlanib kelayotgan xunrezlik siyosati nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bunday jamiyat va yakkahokim rahbarning kelajagi yo'q, deya ta'kidlamochi bo'ladi.

Fitratning "Arslon" dramasi ham Buxoro xonligida yashagan dehqonlarning og'ir hayoti va qismatidan olingan tarixiy voqealarga boydir. Unda ba'zi mulkdor boylarning turli yo'llar bilan xalqni ayovsiz talaganini, o'z yeriga ega bo'lgan kamchilik dehqonlarni ham yeridan ayirishga uringanini, bu yo'lda yurt amaldorlari, mulla, eshon, oqsoqollari ham mulkdorlarga

⁷ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Абulfayzxon. Yo'qsil o'lkasining tarixidan besh pardali fojia. Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. 183-бет

⁸ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Абulfayzxon. Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. 183-бет

⁹ Ўша асар, 186-бет



ko'makchi bo'lganini ko'rish mumkin. Bu davrda qashshoq boy, sudxo'r mulkdordan qarz olib vaqtida qaytara olmasa yeri bo'lsa yerini, yoki uy-joyini xatlab bergan. Ba'zi hollarda oila a'zolari, farzandlarini qullikka berishga majbur bo'lgan: "Ko'r Hasan degan bir muttaham bor. Boydan pul olg'an edi. Bera olmadi. Qizchasini boyg'a xizmatga berib qutulsin, degan edik. Shuni kelturibdir"¹⁰. Asarda Fitrat bir qishloqda bir insofsiz boyning yashashi qishloq ahli ezilishi uchun yetarli ekanini ko'rsatadi. Undan tashqari amirlik davrida mahalliy aholi oila tebratish uchun mehnat qilishidan tashqari o'n kunlab jamoat ishlari safarbar qilinadi. Qatnashmagan har bir kuni uchun soliq to'lashga majbur qilingan. Soliqlarni to'lashga imkoni bo'lmasa qamchin bilan jazolangan. Hasharda yoki soliqda qarzдорligi bo'lsa hukumat vakillari albatta undirishgan. Soliqlarni undiruvchi mirza, darg'a kabilar vaziyatdan foydalanib qashshoq dehqonni bor budidan ayirishgan. Bu davrda mahalliy aholi deyarli hamma narsa uchun hatto bandilarni ozod qilganlik uchun, zindonbon bandini qo'lini kishandan ozod qilgani uchun ham soliq – "ishkil bog'i"¹¹ to'lashgan.

Buxoro amirligida soliqlarning to'xtovsiz oshib borishi, davlat hokimiyati zo'ravonligidan aziyat chekkan aholi hijriy 1301-yili (milodiy 1885-yil) Balijuvon bekligida qo'zg'olon ko'targan. Bu qo'zg'olon to'g'risida Fitrat Buxoro amiri hukmronligi ostida yashagan tojiklar hayotidan tarixiy fojia bo'lgan "Vose qo'zg'oloni" tarixiy dramasini yaratadi. Buxorolik dehqonlarning aksariyat ko'pchiligi kambag'alikda kun kechiradi,

chunki yer va ish hayvonlari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Mang'it amirlari Buxoroda butun hokimiyatga ega bo'lib, ularning zo'ravonlik bilan hokimiyatga putur yetkazishi mumkin bo'lgan biron-bir norozilik chiqishlariga yo'l qo'yishmasdi. Aholi yil bo'yi mehnat qilib, qiynalib orttirganini xilma-xil soliqlarni to'lashga sarflashga majbur edilar. Undan tashqari jamoat majburiyatlari, hasharlar mehnatkash xalqni tinkasini quritgan. Dehqonlar zulm bilan murosqa qila olmay zolimlarga qarshi chiqdilar. Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida ijtimoiy zulm haddan oshdi, bu davrda soliqqa tortish, pul ko'rinishidagi yig'imlar yetakchilik qildi. Xiroj, zakot va juz'ya asosiy soliqlar bo'lib undan tashqari qo'shimcha soliqlarni turi ham ko'p bo'lgan. Agar dehqonning soliqni to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinar edi, bor budidan ayrilar edi: "Beradigan narsamiz yo'q" desak, go'daklarimiz ust-boshini yechib olishadi, uy-joyimizni sotib, musodara qilishadi".¹² Kasodga uchrash, qashshoqlikning tuban darajasi, amaldorlarning hokimiyatdagi suiste'mollariga qarshi norozilik dehqonlarni qo'zg'olonlar ko'tarishga majbur qildi va dastlab Hovaling qishlog'ida, keyinroq Balijuvonda joriy etilgan "zakoti chakana" deb nomlangan g'ayriqonuniy soliq ustiga yana bir echki uchun "bir toqadan qarbos" undirish haqidagi farmon chiqqach bunday soliqni adolatsizlik va talonchilik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortdilar hamda kambag'al Vose' tevaragiga uyushdilar. Asardagi tojik kambag'allaridan

¹⁰ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Арслон. Тошкент: "Маънавият", 2003. 105-бет

¹¹ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Арслон. Тошкент: "Маънавият", 2003. 132-бет

¹² Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. "Восеъ қўзғолони". Т : "Маънавият", 2003. 169-бет.



biri oltmish yoshlardagi Bobo Sanginning Vose'ga bergan javobidan uning bu nohaqliklarga ortiq bardoshi qolmaganini payqash mumkin. Bobo Sangin: "Qo'rqmaymiz! O'ldirishsa, ham qaytaga birato'la qutula qolamiz... Axir bor bisotimizni tortib olsalar, bolalarimiz ochlikdan ming turli balolarga giriftor bo'lib qirilib ketsalar, biz bir chetda tomoshabin bo'lib qarab turaveramizmi? Tiriklikdan nima bahra topdikki, o'limdan qo'rqamiz!"

Ko'rinadiki, bu davrda mahalliy aholi juda nochor hayot kechirgan. Amirlik hukumati esa xazinani to'ldirishning yagona vositasi sifatida amaldagi soliqlar miqdorini oshirish yoki qo'shimcha soliqlar undirish yo'lini tutgan. Jamiyatdagi bu kabi adolatsizliklar natijasida XIX asr oxirida bunday qo'zg'olonlar tez-tez bo'lib turgan. Ko'pchilik qo'zg'olonlar qurol kuchi bilan ayovsiz bostirilishi, aholining qirilishiga sabab bo'ladi, bu kor qilmagan taqdirda "Vose' qo'zg'oloni"da bo'lgani kabi turli hiylalar qo'llanilgan. Fitratning bu tarixiy dramasida Vose' tilidan XIX asrning 80-yillari boshida Mizroboxon boshchiligidagi qo'zg'olonga ham to'xtalib o'tadi. Bu amir yon berishga majbur bo'lgan kam sonli xalq isyoni edi. Ammo bu qo'zg'olonda ham xalqning g'alabasi uzoqqa cho'zilmaydi. Qo'zg'olon qatnashchisi Vose' bu qo'zg'olonning hiyla bilan bostiririlganini eslaydi: "Zolim amir bechora Mizroboxonni aldadi. Uni nomiga Baljuvonga hokim qilib tayinladi-yu, keyin Buxoroga chaqirib olib, o'ldirdi..."¹³

Jadidchilik harakatining faol vakillaridan yana biri bu Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Uning "Xotiralarim" nomli asari yaqin o'tmishimiz XX asr

boshlarida ro'y bergan voqealar tarixiga bag'ishlanadi. Asar o'zi ta'kidlaganidek uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi jadidchilikning maydonga kelishidan 1917-yil fevral inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Unda, asosan, jadidchilikning sho'ro davridagi ma'orif va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, mustaqillik uchun mustamlakachilik siyosatiga qarshi oshkora va yashirin olib borgan kurashi yoritiladi. Ikkinchisi 1917-yil fevral-oktabr, uchinchisi esa sho'ro davrini (1917-1929-yillar) qamrab olgan. Asr boshlarida istiqlol va milliy ozodlik uchun kurash olib borgan "Ittihodi taraqqiy", "Milliy ittihad" va "Milliy istiqlol" kabi oshkora va yashirin tashkilotlar faoliyati tarixi ularning rivojlangan mamlakatlar bilan aloqa bog'lashga urinishlari tarixi: "Ittihodi taraqqiy" tashkiloti Turkiya bilan aloqa bog'lash uchun yuborgan komissiya Turkiyada hukumat to'ntarishi bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi va uchrashib gaplashishi kerak bo'lgan odamlarni topa olmay, muvaffaqiyatsizlik bilan qaytib keladi"¹⁴ ham yoritilgan. Undan tashqari asarda o'sha davr xotin-qizlariga, ularning jamiyatda faoliyat yuritishiga milliy ziyolilar, kommunistlar va mahalliy mutassiblarning turlicha munosabati xususida, yana 20-yillar tarixida Buxoro inqilobi voqealari ham yoritib beriladi.

Jadidlar orasida o'zining zukkoli, yuksak bilimi, tadbirkorligi faoliyatida ko'p qirraliligi bilan ajralib turadigan shaxslardan biri, turkiy xalqlar ozodlik harakati yo'l boshchilaridan biri nomini olgan Ahmad Zakiy Validiy To'g'ondir. Yoshligidan o'zini ilm olishga bag'ishlagan ma'rifatparvar siyosiy faoliyatini ham erta boshlagan. Boshqirdiston o'lkasida

¹³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. "Восеъ кўзголови". Т.: "Маънавият", 2003. 167-бет

¹⁴ Абдурашидхонов М. Хотираларим. Жадидчилик тарихидан лавҳалар. Тошкент: "Шарқ", 2001. 65-бет



rahbarlik lavozimida ishlagan va o'sha davr "dohiylari" Lenin va Stalinni o'zi bilan hisoblashib, maslahatlashishga majbur etgan shaxs edi. Sharif Xolmurod Validiy haqida fikr bildiradi: "Shunday tahlilali jangovar vaziyatlarda ham tariximizga, qadimiy boy madaniyatimizga oid uchragan har bir obidani, osori-atiqalarni yo'l-yo'lakay, hatto kechalari oy yorug'ida, gohida maxsus vaqt ajratib qunt bilan o'rganganligi, ularning boshqa yodgorliklar va voqealar bilan bog'liqligi xususida teran ilmiy xulolasalar chiqarib borganligi esa uning naqadar bag'ri keng, xalqimiz o'tmishini jon-dilidan sevadigan, uning porloq kelajagi to'g'risida qayg'urib bu yo'lda jonini ham ayamaydigan ulug'alloma inson bo'lganligidan guvohlik beradi"¹⁵. O'zini yagona Turkiston himoyachilaridan deb bilgan Validiy o'z yurti Boshqirdiston mustaqilligi yo'lida faol harakatlar olib boradi.

Ammo bu hududlar ozodligi uchun imkoniyat qolmagach ko'pchilik ilg'or kishilar qatori muhojirlikni bo'yniga olib Turkistonga keladi va bu yerda ma'rifatparlik faoliyatini davom ettiradi. Turkistonning tarixi, bu hududdagi tarixiy yodgorliklar, tarixiy shaxslar, turkiy xalqlar tarixiga oid bir qancha asarlar yaratadi. Turkiston tarixini yetarli darajada yoritilmagan deb hisoblagan Mahmudxo'ja Behbudiy "Sadoyi Turkiston" gazetasida "Milliy tariximizni kim yozar?" degan savolni o'rta tashlaydi va: "Bizning fikrimizcha, munday bir tarix yozmoqlik nihoyatda qiyin bir ish bo'lib, hozirda muning ifosi bizlarning qo'limizdan

kelmayturg'onga o'xshaydir. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi ila oshino bo'la boshlagan yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etmakdamiz"¹⁶, deya bu mas'uliyatni Validiyga topshiradi.

Uning "Turk xalqlari tarixiga kirish", "O'rta Osiyo tarixining islom davri", "Xudoyorxonning so'nggi kunlari", "18 asr Farg'ona tarixiga doir", "Buxoro xonligiga sayohat", "Turkistonning madaniy-ma'naviy boyliklari", "Al-Beruniy shimol xalqlari xususida", "Qadim Xorazmda til va madaniyat", "Turkiylar shajarasi", "Amir Temur maqbarasi", "Termur va Boyazid Yildirim", "Buyuk hukmdor Shohrux", "Temur avlodlari", "Sharqda sho'ro siyosati", "Temurning g'arbga yurishlari", "Chingizxon" kabi asarlari va Bartold bilan birgalikda yozgan "Temurning Hindistonga safari" asari vatanimiz va turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlanadi. Begali Qosimov o'z asarida Validiyning turk xalqi haqidagi: "Minglarcha yillik tariximizda qizil ip bo'lib o'tgan xususiyatlarimizdan biri jonlilik va bitmas faollikdir... - yozadi Ahmad Zakiy Validiy va - Turk millatining tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo'lib kelganligini, intizomsevarligini, hayotning eng og'ir mushkulotiga ham tayyor turishini, mashaqqatlarga uzoq muddat sabrli bo'la olishini"¹⁷ ma'lumotlarini keltirib o'tadi.

Tarixdagi turli davrlar va ko'pgina sulolalar, yaqin va uzoq o'tmishdagi tarixiy shaxslar Alpomish haqida, Chingizxon, Amir Temur, Shayboniixon haqida: "Sirdaryo ila Ashtarxon orasida yetishgan bir

¹⁵Валидий А.З. Бўлинганни бўри ер.Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Хотиралар. Т.: "Адолат", 1997. 6-бет

¹⁶ Бехбудий М. Танланган асарлар. "Туркистон тарихи" керак. Тошкент: "Маънавият", 1999. 178-бет

¹⁷Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: "Fan va texnologiya", 2008, 21-bet



sultondir”¹⁸, Lenin haqida: “...u parlamentarizmga pisandsizlik bilan qaraydi... Lenin diktator edi, ammo tiran (mustabid) emas edi”¹⁹ qimmatli ma’lumotlar beradi. Vatanimiz tarixi uchun ulkan xizmatlaridan biri “O’zbek urug’lari” nomli asar yaratib, o’zbek xalqining paydo bo’lishini, o’zbek urug’larini chuqur

o’rganadi va tariximiz uchun qimmatli ma’lumotlar qoldiradi. O’zbeklarni 92 qabiladan tashkil topgani ma’lum Validiyning fikricha: “Zikr etilgan 92 qabiladan 45 qadari bugun o’zbek hayotiga oiddir”²⁰. Validiy ularning har birini sanab o’tadi va o’rnashgan hududlari haqida ma’lumotlar beradi.

References:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Т.: “Маънавият”, 2000.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Т.: “Маънавият”, 2000.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Т.: “Маънавият”, 2003.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. Т.: “Маънавият”, 2006.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилд. Т.: “Маънавият”, 2010. Абдурашидхонов Мунавварқори. Хотираларим. (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Т.: “Шарқ” 2001.
6. Авлоний А. Танланган асарлар. II жилд. Мухтасар тарихи анбиё ва ҳукамо. Тошкент: “Маънавият”, 2006.
7. Бехбудий. Танланган асарлар. Тошкент “Маънавият”, 1999.
8. Gaspirinskiy Ismoilbek. Rahbari muallimin yoxud muallimlarga yo’ldosh. Simperepol. 1898.
9. Mirvaliyev. S. O’zbek adiblari (Xrestomatiya). Т.: “Fan”. 1993-yil. 5-bet Qosimov B. O’zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2008.
10. Сафаров Г. И. Колониальная революция (опыт Туркестана). Москва, 1921.
11. Валидий А.З. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Хотиралар. Т.: “Адолат”, 1997.
12. Хо’jayev Fayzulla. Buxorodagi inqilob va O’rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir. – Tanlangan asarlar. Uch tomlik. I tom. – Т. 1978.
13. Яхшиликов Ж. Жадидчилик ва Бехбудий. – Тошкент: “Фан”, 2004.
14. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

¹⁸ Validiy A.Z O’zbek urug’lari. Ziyo.uz. 16.05.2017

¹⁹ Валидий А.З.. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Хотиралар. Т.: “Адолат”, 1997. 69-бет

²⁰ Validiy A.Z.. O’zbek urug’lari. Ziyo.uz. 16.05.2017